

BOSHLANGICH SINIF DARSLARINI STEAM DASTURI ASOSIDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Do'stmuxamedova Nodira Xamidulla qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Annottatsiya: Boshlang'ich sinf o'qituvchisi fan o'qituvchisidan farqli o'laroq o'quvchilarga aniq bir fan bo'yicha shunchaki bilimlarni beribgina qolmaydi, balki ularni keyinchalik gumanitar va tabiiy-matematik fanlar bo'yicha o'qitishning poydevorini yaratadi, mustaqil o'qishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi fan o'qituvchisiga nisbatan ko'proq kichik yoshdagi maktab o'quvchisida axloqiy sifatlarni shakllantirish bilan bog'liq tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi. U ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni o'quv jarayonida majmuaviy hal qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, boshlang'ish ta'lim, metod, STEAM

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 05.09.2018- yildagi PF-5538 Farmonida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi kiritilishi haqida so'z boradi. Bunda ekologik jihatdan toza materiallar va energiya ning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni, shu jumladan, o'quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash; uch oy muddatda o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko'rib chiqilishi belgilangan. Shunga ko'ra,

Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochiladi. Ular STEAM fanlarini o'qitishga ixtisoslashgan bo'ladi. STEAM — maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o'zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan, bunda o'quvchilar amaliy va ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida saboq oladilar. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchunqat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va tafakkurini kengaytiradi.



Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochibberish, ishlab chiqarish, fantexnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi: - o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiyetayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

- milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;

- inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Amaliy-tajriba va sinov mashqlarida matematika darslarda kundalik faoliyatda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy vaziyatlarga, jumladan, tejamkorlikka, mehnatni yengillashtirishga va unumdorligini oshirishga, savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lgan masalalar yechilishi lozim.

Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan — komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida xususan, matematikani an'anaviy o'qitishning kamchiligi, o'quvchilar avvaldan tayyor matematik materiallar bilan ishlashlari hisoblanadi: berilgan ifodalar ustida o'xshash amallarni bajaradilar, tenglama va tengsizliklarni yechadilar, grafiklar quradilar, ifodaning qiymatini hisoblaydilar va boshqalar.





Asosiysi esa ta'lim oluvchining berilgan materiallarni o'zlashtirishi hisoblanadi. Ma'lumotni qayta ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga kam ahamiyat qaratiladi. O'quvchining olgan bilimlari ko'pincha takrorlash orqali tekshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qituvchi katta mahorat bilan tashkil etishi kerak. Chunki har bir soat dars o'quvchiga yangi bilimlar beradi, mustaqil fikrlash, xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchini o'zligini namoyon etishga, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari dars yakunida o'quvchilarning qanday bilimlar olganliklarini o'qituvchi tomonidan doimo nazorat qilib borilishi shart. Bu jarayonda savol-javoblar, turli xil interfaol metodlardan foydalanish kerak..[3]

Xo'sh? STEAM yondashuvo'zinima?

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika.

Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.
2. Matematika fanidan o'quv dastur.(1-4 sinflar)
3. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z. „Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi— Toshkent.: Fan vatexnologiya, 2005
4. www.edu.uz
5. www.mininnovation.uz
6. www.pedagog.uz

